**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
_______________
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
S.Normamatov
2023-yil ___-avgust

# MAXSUS FANLARINI O‘QITISH METODIKASI

## FANI BO‘YIChA

## SILLABUS

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70230301– Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O‘zbek tili) |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi<br>302MFO'M 1 5 | | Fan/modul turi<br>majburiy | | | Ta'lim tili<br>o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili<br>2023/2024 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 2 | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |
| | Jami: | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |

**Fanning maqsadi (FM)**

Magistrant talabalarga ta'limning yuqori bosqichida matnshunoslikka oid fanlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirish hamda shu fan doirasida to'g'ri mashg'ulot olib borish malakasini shakllantirish.

| Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar | |
|---|---|
| 1. | Matnshunoslik |
| 2. | Metodika |
| 3. | Matnshunoslik nazariyasi |
| | |

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

**Ta'lim natijalari (TN)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

— oliy o'quv yurtida ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini; oliy o'quv yurtida filologik fanlarni o'qitishning davlat standartlarini; oliy o'quv yurtida filologik fanlarning maqsad va vazifalarini; oliy ta'limdagi o'qitishning asosiy didaktik paradigmalarini, metodlari, prinsiplari va o'qitish vositalarini, adabiyotshunoslik sohasida o'qitish natijalari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi (bilim);***

olingan bilimi va shakllantirgan mahoratini oliy o'quv yurtida filologik/adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishdagi nazariy va amaliy faoliyatida qo'llay ***bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma)***;

adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy metod va usullarni qo'llash, adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda talabalarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini jalb qila olish; adabiyot ta'limi jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar ta'sirini baholay olish va shu asosda samarali ta'limni rejalashtirish, talaba bilimini to'g'ri baholash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).***



**Talabalarning kreditlarni olish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan **Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi** fanidan **2-semestrda 150 soat** *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga **5 kredit beriladi.**

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**5 (a'lo) baho -** talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**4 (yaxshi) baho -** talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**3 (qoniqarli) baho -** talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**2 (qoniqarsiz) baho -** talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** o'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklida o'tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

| Fan mazmuni | | Soat |
|---|---|---|
| Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (1-semestr) | | 30 |
| M1 | Oliy ta'limda me'yoriy hujjatlar va ularni yuritish mexanizmlari | 2 |
| M2 | Ta'limni to'g'ri tashkillashtirishda kredit modul tizimining ahamiyati | 2 |
| M3 | "Blended learning" ta'lim shakli | 2 |
| M4 | Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar. | 2 |
| M5 | Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi va ularning qiyosiy tahlili. | 2 |
| M6 | Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. Manbashunoslik va matnshunoslik fanlarini o'qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish | 2 |
| M7 | Mutaxassis o'qituvchilarni oliy ta'limga kompetentligini shakllantirishda adabiyot o'qitish metodikasining o'rni | 2 |
| M8 | Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashning o'rni | 2 |
| M9 | Adabiy ta'lim metodlari, usullari va shakllari hamda ularning aloqadorligi | 2 |
| M10 | Yetuk mutaxassis tayyorlashda muammoli ta'limning o'rni | 2 |
| M11 | Talabalarning mustaqil o'quv ishlarini tashkil etish | 2 |
| M12 | Studopediya - axloqiy ongning rivojlantirish darajasini baholash usuli. | 2 |
| M13 | Individual va differensial ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. | 2 |
| M14 | Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish | 2 |
| M15 | Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish | 2 |
| Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (1-semestr) | | 30 |
| A1 | Kirish. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning obyekti predmeti. | 2 |
| A2 | Dars mashg'ulotlarini o'tishda me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanish va hujjatlar bilan ishlash malakasini shakllantirish | 4 |
| A3 | Seminar, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini tashkillashtirishda kredit modul tizimining o'rni | 2 |
| A4 | Aralash ta'lim OTMda o'qitishning zamonaviy uslubi | 2 |
| A5 | Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining tajribalari | 4 |
| A6 | Integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa. | 2 |
| A7 | Talabalarda dars tashkil etishda axloqiy me'yor masalasiga e'tibor | 2 |
| A8 | Talabalarda axloqiy ongning rivojlanish darajasini to'g'ri baholashning samarali vositalari | 2 |
| A9 | Ma'ruza darslar va ularning turlari | 2 |
| A10 | Talabalarning mustaqil o'quv ishlarini tashkil etish | 2 |
| A11 | Individual va differensial ta'lim va ularning usullari | 2 |
| A12 | Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etishga yo'naltirish | 4 |



| Mustaqil ta'lim (MT) (1-semestr) | | | soat |
|---|---|---|---|
| T/r | Mustaqil ta'lim mavzulari | Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari | 90 |
| 1 | OTMda me'yoriy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish | OTMda faoliyat olib borishda kerak bo'ladigan asosiy hujjatlar bilan tanishiladi | 8 |
| 2 | OTMlarda fanlarini o'qitish bo'yicha xorij tajribalari. | Yaponiya, Koreya, Germaniya, AQSH tajribalari bilan tanishiladi | 8 |
| 3 | Yetakchi professor-o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyatini o'rganish. Ma'ruza mashg'ulotlarini kuzatib, tahlil qilish. Videolavhalar tayyorlash. | Sh. Sirojiddinov, R.Zohidov, V.Rahmonov, N.Jabborov va matnshunoslik doirasida dars beradigan professor-o'qituvchilarning dars berish mahorati o'rganiladi | 8 |
| 4 | Ma'ruza turlari va shakllari. Integrativ metodga asoslangan ma'ruza qurilishi. | Ma'ruza o'tishning turli shakllari bilan tanishiladi | 8 |
| 5 | Tadqiqotga asoslangan ma'ruza mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish. | O'z tadqiqot mavzusi asosida ochiq dars o'tib beriladi | 8 |
| 6 | Amaliy mashg'ulot darslarini to'g'ri tashkillashtirish | Amaliy mashg'ulot darslarini o'tish asosida umumiy xulosa yoziladi | 8 |
| 7 | Laboratoriya tadqiqotiga asoslangan mashg'uloti. | Laboratoriya darslari va ularning seminar va amaliy mashg'ulotdan farqli jihati aniqlashtiriladi | 8 |
| 8 | Muammoli ta'limga asoslangan mashg'ulotlar. | Savollarga asoslangan mashg'ulotning afzalligi va qo'llash o'rni. | 8 |
| 9 | Qo'lyozma, toshbosma matn hamda audio orqali matnlarni qiyoslash asosida mashg'ulot o'tkazish. | Biror g'azal yoki matn parchasi o'qib va eshitish orqali qiyoslanadi | 8 |
| 10 | Filologik ta'lim tizimida jahon tajribasi | Metodlardan to'g'ri foydalanish mahoratini shakllantirish | 8 |
| 11 | Studopediya - axloqiy ongning rivojlantirish | Savollarga asoslangan mashg'ulot | 6 |
| 12 | Individual va differensial ta'lim | Amaliy mashg'ulot darslarini o'tish asosida umumiy xulosa | 4 |

| | | yoziladi | |
|---|---|---|---|

## 7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI


**Asosiy adabiyotlar:**

1. Муталипова М., Имомов М. Таълимда илғор хорижий тажрибалар. – Тошкент: 2017. 187 б
2. Ҳусанбоева Қ, Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 2018. 352.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Ш. Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Ш.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараккиёти ва халк фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
5. Ганьшина Г.В. Методика прподавания специальных наук. Учебное пособие для бакалавриата, специалитета и магистратуры. 2-е издание. – Москва: Юрайт, 2019. https://biblio-online.ru/viewer/metodika-prepodavaniya-specialnyh-disciplin-445284.
6. Актуальные вопросы литературоведения и методики преподавания литературы: Сб. научн. работ. Вып.1. –Саратов, 2000.

**Axborot manbalari**

7. www.ZiyoNet
8. www.nuqf.intal.uz
9. www.ziyouz.com
10. www.ref.uz
11. www. tdpu. uz
12. www.pedagog. Uz


**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | Zilola Shukurova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent |
| **E-mail:** | zilolashukurova@mail.com |
| **Tashkilot:** | ToshDO'TAU, "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasi |
| **Taqrizchilar:** | Filologiya fanlari doktori Sobirova E.N;<br>Filologiya fanlari nomzodi Tilovov A. |



Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil ____-avgustdagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasining 2023-yil ____-avgustdagi ___-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

| | |
|---|---|
| **O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i** | V.Nazarov |
| **Fakultet dekani** | B.Abdushukurov |
| **Kafedra mudiri** | R.Zohidov |
| **Tuzuvchi** | Z.Shukurova |